

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ATASHOVA PERUZA DAULETBAEVNA

**“I.YUSUPOV ASARLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA ADEKVAT
TARJIMANING XUSUSIYATLARI”**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Atashova Peruzha Dauletbaevna

I.Yusupov asarlarining ingliz tiliga tarjimasida adekvat tarjimaning xususiyatlari..... 3

Аташова Перуза Даулетбаевна

Особенности адекватного перевода произведения И.Юсупова на английский язык..... 25

Atashova Peruzha Dauletbaevna

Peculiarities of an adequate translation of I. Yusupov’s works into English.... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMY KENGASH

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

ATASHOVA PERUZA DAULETBAEVNA

**“I.YUSUPOV ASARLARINING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA ADEKVAT
TARJIMANING XUSUSIYATLARI”**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

Falsfa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3824 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Paluanova Xalifa Daribaevna
Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Alniyazov Aytmurat Ismailovich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raximova Go'zal Yuldashovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "23" may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25); faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (294 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil "28" aprel dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi).



M.S.Kudaybergenov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E.Seytjanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A.Kurbaniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarjimoshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab poeziya va badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Badiiy asar tarjimasining adekvatligini estetik ta'minlash orqali ularning lingvopoetik, stilistik va semantik tahlilini amalga oshirish jahon tarjimoshunosligi oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki adabiy tilning badiiy jihatdan barqarorligi, milliy xarakterlarni paydo qilishdagi o'ziga xosligiga erishishda shoir va yozuvchilarning xizmatlarini alohidaligi sir emas. Shu bois jahon tarjimoshunosligida har bir millatning o'ziga xos milliy koloritini saqlab qolish uchun tarjimaning leksik, grammatik va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Dunyo tarjimoshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar zamonaviy tahlil qilish metodlariga tayangan holda olib borilmoqda. Badiiy asarlarni lingvomadaniy jihatdan qiyosiy o'rganish faqat tarjimoshunoslik uchun emas, balki unga yaqin bo'lgan sohalar uchun ham katta hissa qo'shishi o'z tasdig'ini topgan. Ayniqsa, hozirgi kunda stilistika va adabiyotshunoslik sohalari bilan umumiy tomonlari katta qiziqish uyg'otmoqda. O'z navbatida qardosh bo'lmagan tillarni qiyosiy, lingvopoetik va lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish adabiy tilning shakllanish va rivojlanishidagi o'rnini yoritib berishda roli cheksiz. Lingvopoetik tadqiqotning asosiy maqsadi badiiy asarning estetik bahosi va ta'sirchanlik kuchini belgilash bo'lganligi boyis lingvopoetikaning masalalarini hal etishda, asosan, yozuvchining so'z qo'llashdagi badiiy mahoratini tadqiq qilish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan keyin zamonaviy tarjimoshunoslikning alohida sohalari lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika va qiyosiy tarjimashunoslik sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqning ma'naviy madaniyati va qoraqalpoq tilining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan qoraqalpoq shoir va yozuvchilari asarlari tilini o'rganish davr talabiga aylanib bormoqda. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Zamon bilan hamnafas ijod qilib, boshqalarga o'rnak va namuna ko'rsatayotgan fidoyi, faol ziyolilarimizning aksariyat qismi xalqimiz oldidagi ma'naviy va ijtimoiy burchini, farzandlik qarzini chuqur anglab, o'zini ayamasdan mehnat qilayotgan, jamiyatimizning oldingi saflarida bo'lib kelayotgan insonlar oz emas. Ularning ijodiy izlanish va yutuqlari, xususan, O'zbekistonning bugungi hayotiga bag'ishlangan sermazmun asarlari haqida uzoq gapirish mumkin va buning uchun biz ulardan minnatdormiz"¹, tarzidagi fikrlari bizning ishimizning dolzarbligiga asos bo'ladi. Jumladan, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri I.Yusupovning davr nafasi bilan sug'orilgan, vatanga muhabbat, inson va tabiatni qadrlash, falsafiy va didaktik mazmunga to'la, qalblarga yaqin asarlari qoraqalpoq adabiyotining rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shganligi bilan e'tiborga sazovor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-sonli "Oliy ta'limdan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2019-yil 8-

¹ Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. <https://uza.uz/oz/posts/adabiyot-va-san-at-madniyatni-rivojlantirish-xalqimiz-ma-na-03-08-2017>

oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yi 24-avgustdagi PF-502 son “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni joriy etish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengashi Prezidiumining 2021-yil 16-iyuldagi “Qoraqalpoq tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi² va unga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon va turkiy adabiyotshunoslik sohasida badiiy tarjima sohasiga oid bir qancha ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, uning badiiy adabiyot va madaniyat tarixidagi o‘rni, tarjima san’ati, tarjimon mahorati va boshqa masalalar o‘rganilgan. Rus olimlari V.A.Jukovskiy, V.N.Komissarov, A.V.Fedorov, G.Gachechiladze, I.Kashkin, P.Antokolskiy, M.Rilskiy, L.Mkrtchyan va boshqalar badiiy tarjima bo‘yicha tadqiqotlar olib brogan³.

Mahalliy olimlardan J.Sharipov, Q.Musaev, Y.Polatov, M.Karimov, Y.Egamova, G‘.Salomov, Z.Isomiddinov, S.Mirzoqulov, I.Dilmanov, F.Sapayeva va boshqalar tarjima nazariyasi hamda adabiy aloqalarga doir bir qancha ilmiy ishlarni amalga oshirganlar⁴.

² <https://lex.uz/docs/6008663>

³ Жуковский В.А. Одиссея. – М.: Художественная литература, 1981. – 407 с.; Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.; Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – М.: Филология три, 2002. – 415 с.; Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М., 1990. – 160 с.; Кашкин И. Для читателя – современника. Статьи и исследования. – М.: Советский писатель, 1968. – 295 с.; Антакольский П.Г. Пушкинский год. – М.: Художественная литература, 1938. – 87 с.; Рыльский М.Ф. Краткая литературная энциклопедия. – М., 1962. – 103 с.; Мкртчян Г.А. Культурные компоненты художественного текста и проблемы перевода //Языкознание и литературоведение. – М., 2011. – С. 11-12.

⁴ Шарипов Ж. Хорезм. – Ташкент: Изд-во литературы и искусства, 1990. – 354 б.; Мусаев К. Культура языка перевода. – Ташкент: Фан, 1982. — 189 с.; Пулатов Т. Рассказы и повести. Сборник. Современная проза, 1995. –

Lug‘at tarkibidagi frazeologizmlar va ularning tasnifi turkiy filologiyada S.Kengesbaev, Sh.Raxmatullayev, S.N.Muratov, G.X.Axunzyanov, B.Yuldoshev, A.Mamatovlar, qoraqalpoq tilshunosligida esa E.Berdimuratov, T.S.Naurizbaev, J.Eshbaev, G.Aynazarova, Sh.Abdinazimov, G.Karlibaeva va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib brogan⁵. Shunday bo‘lsa-da, qoraqalpoq tilshunosligida badiiy asarni tarjima qilish masalalari bugungi kungacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois badiiy asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, xususan, qoraqalpoq tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning o‘ziga xosliklarini tadqiq qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti”, “Hozirgi adabiyotshunoslikda adekvat tarjimaning muhim masalalari” nomli ilmiy tadqiqotlar rejasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shoir I.Yusupov poeziyasini ingliz tiliga adekvat tarjima qilishda uchraydigan muammolarni tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

dunyo va mahalliy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda tarjima nazariyasi, roli va usullariga doir amalga oshirilgan ilmiy ishlar, olimlarning fikrlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanida tarjimaning nazariy va amaliy o‘rganilishiga sharh berish;

shoir asarlarida qo‘llanilgan adekvat tarjima – tillararo aloqalarning asosiy vositasi sifatidagi vazifasini dalillash;

I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishning interpretatsiyasini o‘rganish;

I.Yusupovning lirik asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda qoraqalpoq xalqi milliy koloritining saqlanishini tadqiq etish;

102 с.; Каримов М. Антология поэзии Башкортостана. Голоса веков. – Уфа: Китап, 2007. – С. 223-226; Эгамова Н. Языковая личность в переводе. Т. 6. – Андижан, 2023. - № 11. – С. 87; Исомиддинов З. Суз кисмати. – Тошкент: Матбаа, 2020. – 100 с.; Мирзакулов А. Видение молодого переводчика о процессе синхронного перевода // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – Самарканд, 2024. - № 2, 6/С. – С. 13–18; Дилманов И.У. Цифровизация общественно-политической лексики в лексикографических источниках // Вопросы науки и образования. – М., 2024. - №13(185); Сапаева Ф.Д. Проблемы повторного перевода стихотворений Махтумкули (на примере переводов на узбекский язык стихотворений Махтумкули) // Вестник: Филологические науки. - Вып.105. – Челябинск, 2017. - №3(399). – С. 104-109.

⁵ Кенесбаев С. Русско-казахский словарь лингвистических терминов. Акад. наук КазССР. Ин-т языкознания. 2-е изд., испр. и доп. – Алма-Ата: Наука КазССР, 1966. – 206 с.; Рахматуллаев Ш. Историческое развитие перевода фразеологических единиц // Scientific progress, 2021. – С. 35; Рахматуллаев Ш. Толковый фразеологический словарь узбекского языка. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 134 с.; Муратов С. Перевод повести Н. Жерар де Нерваль «Аврелия». 2001. – 201 с.; Ахунзянов Т.И. Башкирская энциклопедия. – Уфа: ГАУН РБ, 2015. – 326 с.; Юлдашев А.А. Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение». Проблемы Востоковедения. 2010. – 45 с.; Маматов А. Особенности работ первых профессиональных переводчиков произведений И.В. Гёте. – Гулистан: Узбекистан, 2015. – 45 с.; Бердимуратов Е. Хэзирги қарақалпақ тили. Лексикология. – Нөкис, 1994. – 188 б.; Наурызбаев М.М. Репрезентация исторической правды в художественном переводе (на основе переводов произведений на английский. – Астана, Казахстан, ЕНУ им.Л.Н.Гумилева, 2005. – 47 с.; Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилинің қысқаша фразеологиялық сөзлігі. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1985. – 227 с.; Айназарова Г. Келбетлік мәнилі фразеологизмлердің эмоциональ-экспрессивлік өзгешеліктері // Research Education. 2022. -№1 (9). – Б. 193-197; Абдиназимов Ш. И.Юсупов поэзиясында фраземалардың окказионал стильлік хызметтері // TURKLAD 2(1), 2018. – Б. 149-155; Карлыбаева Г.Е. Роль фразеологизма в поэзии Ажинияза // Вестник: Филологические науки. – Челябинск, 2017. - №3 (399). - Вып.105. – С. 37-40.

I.Yusupov asarlarida kiyim-kechaklarni tarjima qilishda realiyalarni o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri I.Yusupov asarlari, R.Rzayeva va ingliz tarjimoni E.Steniland tarjimalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti I.Yusupov asarlarining ingliz tiliga adekvat tarjima qilishning o'ziga xosliklari hisoblanadi.

Tadqiqot usullari: qiyosiy-tarixiy, qiyosiy tipologik, leksik-semantik, badiiy-estetik, lingvopoetik tahlil, komponent va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shoir I.Yusupov asarlarini tarjima qilishda adekvat tarjimaning tillararo aloqalarning asosiy vositasi sifatidagi vazifasi aniqlangan;

I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda leksik va grammatik xususiyatlari ochib berilgan;

shoir I.Yusupov asarlari tarjimasining zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi tutgan o'rni va o'ziga xosligi bilan farqlanishi dalillangan;

I.Yusupovning lirik asarlarini ingliz tiliga o'girishda qoraqalpoq milliy koloritining saqlanishida shoir g'oyasini badiiy jihatdan yetkazib berishda tarjimonning mahorati aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dunyo va mahalliy adabiyotshunoslikda tarjima nazariyasi, uning roli va usullari bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar, olimlarning fikrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan;

tilshunoslik va adabiyotshunoslikda tarjimaning nazariy hamda amaliy o'rganilishiga sharh berilgan;

shoir asarlarida qo'llanilgan adekvat tarjima – tillararo aloqalarning asosiy vositasi sifatidagi vazifasi dalillangan;

I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishning interpretatsiyasi o'rganilgan;

I.Yusupovning lirik asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda qoraqalpoq xalqi milliy koloritining saqlanishi tadqiq etilgan va tematik guruhga ajratilgan;

I.Yusupov asarlarida milliylikni aks ettiruvchi atamalarni tarjima qilishda realiyalar o'rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qoraqalpoq shoiri I.Yusupov asarlari ingliz tiliga tarjimalarining original matn bilan qiyosiy tadqiqi asosida kompleks o'rganilib, nazariy natijalarga erishilganligi, tadqiqot turkiy va ingliz tillarining tarjimashunosligi sohasiga asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va xulosalar ilmiy tadqiqotning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy-estetik, lingvopoetik tahlil metodlariga asoslanganligi, nazariy fikr hamda tavsiyalarning amaliyotda keng qo'llanilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan dalillanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy-amaliy natijalari va nazariy xulosalari qoraqalpoq shoiri I.Yusupov poeziyasining ingliz tiliga tarjimalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi hamda nazariy ma'lumot tarjimashunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopoetika, qiyosiy tipologiya, stilistika va matn interpretatsiyasi fanlarining resurslari sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada tavsiya etilgan tadqiqot materiallari va natijalari oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan "Tarjimashunoslik", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Lingvopoetika", "Qiyosiy tipologiya", "Stilistika va matn interpretatsiyasi" fanlaridan darslik hamda o'quv qo'llanmalar yaratishda, bitiruv malakaviy ish hamda magistrlik dissertatsiyalar tayyorlash jarayonida, shuningdek, ingliz va qoraqalpoq tillari bo'yicha bo'lg'usi mutaxassislarning nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarini boyitishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qo'llanilishi. Qoraqalpoq xalq shoiri I.Yusupov poeziyasini ingliz tiliga adekvat tarjima qilishda uziga xosligini o'rganish asosida olingan ilmiy natijalar quyidagi yo'nalishda amaliyotda e'lon qilingan:

Qoraqalpoq xalq shoiri I.Yusupovning poeziyasini ingliz tiliga tarjima qilishdagi xususiyatlarini o'rganish natijalari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali institutida "I.Yusupov asarlarining ingliz tilidagi adekvat tarjimaning o'ziga xosligin tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali institutining 2025 yil 04-martdagi №27 son guvohnomasi). Natijada shoir asarlarida qo'llanilgan adekvat tarjima - tillararo aloqalarning asosiy vositasi sifatidagi xizmatini isbotlagan;

o'rganish natijalari va ilmiy-nazariy takliflar Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar TV telekanalida I.Yusupov asarlarining ingliz tiliga tarjima qilishda milliy koloritning saqlanishini tahlil qilish soha mutaxassislari bilan suhbat jarayonida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar TV telekanalining 2024-yil 22-oktabrdagi 01-02/03-197-son guvohnomasi). Natijada tarjima usullari qiyosiy o'rganilishi orqali shoir asarlari tahlili natijalari, tarjima qilishdagi realiyalarning, milliy koloritning saqlanishi, undan tashqari shoir I.Yusupov asarlari yoshlarga vatanparvarlik, milliy g'urur, madaniy merosga hurmat kabi fazilatlarni o'rgatish orqali yoshlarning ongini o'stirishda katta ahamiyatga ega ekanligini tushunishning turli yo'llari haqida ma'lumot berilgan;

I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda milliy koloritning saqlanishini tahlil qilish bo'yicha ko'rgazma va ekskursiyalarda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2024-yil 21-oktabrdagi 01/02-108-son guvohnomasi). Natijada muzey mehmonlari bilan muloqotni shakllantirishda tarjimon usullarining qiyosiy tadqiqoti, I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga adekvat tarjima qilishda R.Rzayeva va ingliz tarjimoni E.Steniland tarjimalarida uchraydigan muammolar: qoraqalpoq xalqining tili, adabiyoti, madaniyati, milliy urf-odatlari va qadriyatlarining o'ziga xosligi ochib berilgan;

dissertatsiya xulosalari 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklori va adabiyotshunosligining tarixini ilmiy o'rganish" nomli fundamental loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 29-yanvardagi 37/1-son guvohnomasi). Natijada adabiyotshunoslik sohasida tarjima nazariyasi va amaliyoti alohida soha sifatida shakllanib, uning qoraqalpoq adabiyotida tutgan o'rni, o'rganilishi, shuningdek, tadqiqot obyekti sifatida I.Yusupov poeziyasining ingliz

tiliga adekvat tarjimasini o'rganish xususiyatlari, I.Yusupov asarlarining ingliz tilidagi adekvat tarjimasida leksik va grammatik xususiyatlar, uning interpretatsiyasi va toponimik nomlarning ingliz tiliga tarjimasida qoraqalpoq milliy koloritining saqlanishi, milliy kiyim-kechaklarning tarjimasidagi realiyalar ifodalangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, shundan 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ish nashr etilib, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 maqola, shundan 7 maqola respublika, 1 maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga olib, umumiy hajmi 152 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti yoritilgan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**Zamonaviy tilshunoslikda tarjimaning nazariy va amaliy ahamiyati**" deb nomlangan bo'lib, u uch qismdan iborat. Birinchi bobning "**Tilshunoslikda tarjimaning nazariy va amaliy o'rganilishi**" deb nomlangan birinchi qismida hozirgi kunda inson faoliyatining eng qadimiy va muhim turlaridan biri bo'lgan tarjimashunoslik sohasining umumiy nazariy masalalariga bag'ishlanganligi, tarjima qoidalari va tuzilishini professional darajada keng tarqalgan usullar orqali o'rganadigan ilmiy yo'nalish ekanligi haqida keltirib o'tilgan.

Tarjima ishining murakkabligi, tarjimon tarjima harakatlarining maqsadga muvofiqligi va adekvatligini, ularning afzalliklari va kamchiliklarini iloji boricha xolis baholash uchun qanday ziddiyatlarni hal etishi kerakligini tushunish uchun tarjima faoliyatining zarur xususiyatlarini aniqlash va uning tuzilishini o'rganish zarur. Bundan tashqari, tarjimaning uch doimiy a'zosi o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini aniqlash kerak: asarning muallifi, tarjimon va tarjimon tomonidan yaratilgan asarning o'quvchisi, shuningdek tarjima ishining etik jihatlarini ko'rib chiqish lozim.

Y.I.Resker: "Tarjimonning vazifasi asar asl nusxasining mazmunini boshqa til yordamida stilistik va ekspressiv xususiyatlarini saqlab qolish orqali yaxlit va aniq yetkazishdir. Tarjimaning "to'liqligi" deganda yangi til asosida shakl va tarkibning birligi tushuniladi. Tarjima faqat asl nusxada ko'rsatilgan ma'lumotni yetkazibgina qolmay, balki o'sha holatda qanday ko'rsatilganligini ham yetkazib berishi kerak. Bu

talab matnning butun tarjimasiga ham, uning qismlariga ham taalluqli hisoblanadi”⁶. Bu fikrga biz to‘liq qo‘shilamiz. Chunki so‘zma-so‘z tarjima qilganda butun bir fikrning mazmunini keltirib chiqarish oson emas. Shu bois gapning mazmuniga qarab tarjima qilish ma’qul.

Tarjimani tillararo va madaniyatlararo aloqa jarayoni sifatida, ikki tildan foydalanadigan kommunikatsiya, tillarning aloqasi sifatida o‘rganish orqali biz tillararo va madaniyatlararo assimetriyani aniq bilib olishimiz mumkin. Bugungi kunda zamonaviy tillar har qanday haqiqatning bir qismini anglatishi, shubhasiz. R.Yakobson tarjima nazariyasi va amaliyotining ko‘plab aralash masalalarining tugunini yechishga urinish sifatida “tarjima bo‘lolmasligi” haqidagi ko‘pgina skeptiklarning da’volarini ko‘rib chiqqan. – Barcha kognitiv tajriba va uning tasnifi amaldagi har qanday tilda ifodalanishi mumkin⁷, - deb ko‘rsatib o‘tgan.

Bobning **“Tarjima - tillararo aloqalarning asosiy vositasi sifatida”** deb nomlangan ikkinchi qismida tarjima nazariyasi, tarjimashunoslikning markaziy hodisalaridan biri bo‘lgan tarjimaning mazmun-mohiyatini turli nuqtayi nazardan o‘rganildi. Tarjimaning mazmuni turli tillarda so‘zlashuvchi shaxslarning bevosita muloqoti chog‘ida namoyon bo‘ladi va tillararo (madaniyatlararo, ikki tilli) muloqot bilan bevosita bog‘liqdir.

Tillararo aloqa sifatiga kommunikativ akt ishtirokchilaridan biri tomonidan aloqa qilish uchun tanlangan tilni bilish darajasi, ya’ni uning kommunikativ qobiliyati, muloqot jarayonida amalga oshiriladigan milliy-madaniy xabarni bilish darajasi, muloqotning barcha ishtirokchilarining boshqa millat va madaniyat vakillariga xayrixohlik darajasi, ularning madaniyatlararo munosabatda ishtirok etishga tayyorligi omillari ta’sir etadi⁸.

“Tillararo aloqa” atamasi “til chegaralarini kesib o‘tuvchi aloqa” sifatida taqdim etiladi. Bu turdagi aloqa quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) “A” va “B” sheriklar “T” tilida gaplashadi;
- 2) “A” sherigi “Ta” tilidan, “B” sherigi “Tb” tilidan foydalanadi, chunki ularning har biri boshqalarning tilini retseptiv o‘zlashtiradi;
- 3) “A” va “B” sheriklar bir-biri bilan o‘z ona tilida so‘zlashishdan tashqari biladigan uchinchi tildan foydalangan holda muloqot qiladilar;

“A” va “B” sheriklar umumiy tilga ega emas, ular o‘rtasida bevosita aloqa qilish imkoniyati bo‘lmaganligi sababli o‘rtada bog‘lovchi bo‘lishi kerak.

G.Eger til vositachiligining ikki turini ajratadi – ekvivalent va geterovalent (ekvivalent bo‘lmagan). Ularni farqlashning asosiy o‘lchovi matnning kommunikativlik mohiyati bo‘lib, u o‘zining kommunikativ funksiyasini amalga oshirishda ma’lum ta’sir ko‘rsatish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Vositachi muloqotning har qanday turida asl matnlar (asl nusxalar) va til vositachisi tomonidan yaratilgan ikkinchi darajali matnlar (tarjimalar) o‘rtasida farqlanadi⁹.

Ekvivalent aloqa ko‘proq mehnat talab qiladigan va ko‘proq qiymatga ega usul hisoblanadi. U asosiy matn mazmunini tavsiflashda hech qanday cheklovlarga ega

⁶ Рецкер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. – М.: Международные отношения, 1974. – 216 с.

⁷ Якобсон Р. Избранные работы. – М., 1985. – 364 с.

⁸ Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 75.

⁹ Егер Г. Перевод и лингвистическая теория перевода. – М., 1975. – С. 10.

emas. Ideal ikki tilli (“Ta” va “Tb” tillarini teng darajada biladigan shaxs) ideal adresat (“A” va “B” tillarini teng darajada biladigan adresat) bilan muloqot qilganda, matnlar kommunikativ jihatdan ekvivalent hisoblanadi. “Ta” yoki “Tb” matnni teng ravishda ishlatishi mumkin, chunki ikkala matn ham bir xil kommunikativ ta’sir ko’rsatadi¹⁰.

Geterovalent aloqada matn hajmining qisqarishi va asosiy matnning kommunikativ darajasining cheklanishi alohida xususiyat hisoblanadi. Bunday holatda yaratilgan ikkinchi darajali matn mutaxassis (tarjimon, shu bilan birga til vositachisi) nuqtayi nazaridan eng zarur ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Bunday matnni yaratish jarayoni abstraktlashtirish deb ataladi. Bu jarayonning harakati reduksiya jarayoni sintez bilan birlashganida yuzaga keladi.

Bobning **“Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimaning o’rni va adekvatligi”** deb nomlangan uchinchi qismida tarjimashunoslik sohasidagi tarjima turlari va uning adekvatligini o’rganishga yo’naltirilgan ishlar tahlil qilingan.

Matnni nafaqat qayta kodlash, balki uni lingvistik (tilning turli ma’nolarida matn tuzish) va semantik (muallif niyatini yetkazish, muallif bilan o’quvchi o’rtasida dialog yaratish) yo’qotishlarga yo’l qo’ymaslik kerak.

Ekvivalentlik va adekvatlik tarjima nazariyasining asosiy kategoriyasi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu atamalarning aniq mazmuni berilmagan. Ekvivalentlik “tarjima matnining asl matnga nisbatan asosiy xususiyati”, adekvatlik esa “matnning asl nusxasi tarjima matni bilan semantik jihatdan to’liq mosligidir”¹¹. “Adekvatlik” va “ekvivalentlik” tushunchalari bilan birga olimlar semantik, situativ, transformatsion, psixolingvistik, kommunikativ, informativ kabi tarjima modellarini ko’rib chiqadilar.

Bundan tashqari adekvatlikning turi bilan ajralib turadigan har xil tarjima turlari mavjud:

1) semantik va stilistik jihatdan adekvat tarjima. Bu semantik, stilistik va tarjima tilining funktsionallik tamoyiliga mos keladigan tarjima.

2) pragmatik jihatdan adekvat tarjima. Bu asl matnning to’g’ri yetkaziladigan fundamental kommunikativ ma’lumotlarning tarjimasi.

3) oddiy adekvat tarjima. U ma’lumotga qo’yiladigan talablarga to’liq va to’g’ri javob beradi. Shu bilan birga, to’liq semantik tarkibi yoki asl matnning asosiy ma’lumot funksiyasini yetkazib berishi talab etilmaydi.

Ba’zan eng yaxshi pragmatik ekvivalentni topish uchun bir necha usullardan foydalaniladi. N.A.Fenenko madaniy ahamiyatga molik komponentlar va realiyalarni quyidagicha tarjima qilish kerak deb hisoblaydi: transkripsiya + qo’shimcha yoki kalkalash + izoh¹².

Badiiy adabiyot asarlariga xos xususiyatlardan biri turli uslubdagi lingvistik vositalarni birlashtira olishi, estetik muammolarni hal etish uchun integratsiyalashuvchanligi hisoblanadi. Badiiy asar matnlarida texnik terminlar, tadbirkorlikka oid so’z birikmalari, jargonlar, jurnalistik va so’zlashuv elementlari qo’llanilishi mumkin.

¹⁰ O’sha manba. – С.25-37.

¹¹ Гарбовский Н.К. Теория перевода. – М.: Изд. Московского университета, 2004. – С.285-288.

¹² Фененко Н.А. Язык реалии и реалии языка. – Воронеж, 2011. – С. 72.

Masalan, tilshunos R.Rzaeva¹³ qoraqalpoq xalq shoiri I.Yusupovning “Ona tilimga” she’rini ingliz tiliga tarjima qilishda “*Bayterekseñ ósken góne tamirdan*” degan satrini “*You are a perennial tree with leaves, Grown from the old root each*” deb tarjima qilgan. Qoraqalpoq tilidagi asl nusxada berilgan “*bayterekseñ*” so’zi ona tilining necha ming yillik daraxtga o’xshatilganligi orqali ifodalangan, ingliz tiliga esa “*perennial tree*” degan so’z birikmasi orqali o’girilgan, bu esa o’z navbatida “ko’p yillik daraxt” degan ma’noni anglatadi. Shu bois tarjimon ko’p yillik daraxt tasviridan foydalanib, o’quvchilar orasida ona tiliga bo’lgan hurmatning assotsiatsiyalarini yaratadi.

Birinchidan, tarjimada o’zlarining madaniy funksiyalarini bajaradigan ikki asosiy tarjima strategiyasini ko’rsatib beradilar: *forenizatsiya* va *domestizatsiya*.

“Domestikatsiya”ning tarjima strategiyasi F.Shleyermaxer asarida “asl matnni maqsadli tilning madaniy qadriyatlariga muvofiq etnosentrik jihatdan kamaytirish” deb belgilangan. Ya’ni, tushunarsiz matnlarni boshqa tillardan maqsadli qabul qiluvchilar tushunadigan so’zlar orqali tarjima qilishdir.

F.Shleyermaxer o’z ishida yana bir muhim strategiyani – forenizatsiyani keltirib o’tadi. Forenizatsiya – bu “tarjima qilingan til madaniyatining etnodeviatsion darajasi, asl matnning lingvistik va madaniy farqlarini belgilaydi”¹⁴.

Forenizatsiyaning tarjima strategiyasi chet tilining lingvistik, til va madaniy qadriyatlarini saqlashga qaratilgan hisoblanadi. Bu strategiya nafaqat mamlakatning haqiqiy realiyalarini, balki bu millat madaniyatining barcha xususiyatlarini ham saqlaydi. Bunday tarjimalarda tarjimonlar odatda asl matn tushunchasini bevosita o’zlarining tarjimalariga o’tkazish uchun “transkripsiya” yoki “kalkalash” usulidan foydalanadilar.

Zamonaviy tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan badiiy tarjima ko’pincha ikki tarjima tamoyillari o’rtasida o’zgarib turadi: so’zma-so’z aniq tarjima, bu esa o’z navbatida “badiiy tarjima” tushunchasiga mos kelmaydi va erkin tarjima, bu esa asl matndan chetga chiqadi, lekin ma’lumotlarning mosligiga erishadi. Bu ikki tamoyil tarjimaga ikki xil yondashuvni aks ettiradi: ular tarjimoni til va adabiyot nuqtayi nazaridan belgilaydi.

A.V.Fedorov va G.R.Gachicheladze¹⁵ fikriga tayanib, badiiy tarjimaning zarurligini quyidagi qismlarga ajratamiz:

1) aniqlik. Tarjimaning aniqligi mezoni tarjimonning maqsadiga, tabiatiga, tarjima qilinayotgan matn va matn auditoriyasiga bog’liq bo’ladi.

2) qisqalik - bu tarjima matnining soddaligini tavsiflovchi sifat ko’rsatkichini ifodalash shaklidir.

3) ravshanlik - bu tasvirlash uchun qo’llaniladigan tarjimaning sifat ko’rsatkichi bo’lib, tarjima qilingan matnda tushunarsizlik va murakkab bog’lamlar bo’lmasligining ravshanligi uchun qo’llaniladigan ko’rsatkichdir.

¹³ Рзаева Р.К. Вопросы художественного перевода (лирика каракалпакского поэта И.Юсупова). – Нукус, 2015. – 154 с.

¹⁴ Шлейермахер Ф. О разных методах перевода // Вестник Моск. ун-та. Сер. 9. Филология. – М., 2000. - № 2.

¹⁵ Федоров А.Б. Основы общей теории перевода. – М.: Высшая школа, 1983. – 303 с.; Гачечиладзе Г. Введение в теорию художественного перевода. – Тбилиси, 1990. – 160 с.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “*I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga adekvat tarjima qilishning lingvistik xususiyatlari*” deb nomlangan. Bobning birinchi qismi “*I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishning leksik xususiyatlari*” deb atalgan bo‘lib, unda tarjimada muqobil so‘z tanlashdagi leksik xususiyatlar haqida olimlar fikrlari bayon etilgan.

Albatta, ajoyib badiiyat, til, uslub mahorati buyuk shoirning beqiyos iste’dodi mahsuli ekanligi, shubhasiz. “Ibroym Yusupov qoraqalpoq xalqining XX asrdagi Pushkini deb hisoblash mumkin” deb I.Yusupovning ijodini rus shoiri A.S.Pushkinga tenglashtiradi qoraqalpoq adabiyotining taniqli vakili Jonizoq Esenov¹⁶. Shoirning zabardast zamondoshi To‘lepbergen Qayipbergenov¹⁷ esa “Uning mangu she’riyatini mamlakatimiz xalqlarigina emas, turkiy tilli xalqlar ham tan oldi. Ibroymning ulug‘ligi o‘zining ham, she’rining ham oddiyligida edi”, deya qayd etgan¹⁸.

Badiiy tarjimada asl nusxa muallifining so‘z qo‘llash usullarini chuqur tushunish bilan birga ona tilining (qoraqalpoq tilining) leksik boyligidan to‘g‘ri foydalana bilish – mahoratning bosh belgisi hisoblanadi. Tarjimon bitmas-tuganmas “so‘z dengiziga” ega. Lekin u so‘zlarning duch kelganini tanlamaydi, balki asl nusxani ifodalay oladiganlarini oladi. Tarjimonning mahorati ona tilidagi “so‘z dengizidan” qanday so‘z yoki jumlani tanlab olishida.

“To‘maris” – bu I.Yusupov she’riyatidagi “Janna Dark” sanaladi. U qoraqalpoq xalqining To‘maris – Quyosh qizi podshohlik qilgan davrini tasvirlaydi. Mazmun haqqoniyli va bayon mahorati jihatidan bu asar – badiiyat namunasi.

Asarda turli ma’nodagi, har xil xarakterdagi odamlar, ularning hayoti, tarixiy voqealar tasvirlanadi. Bu uning til, uslub xususiyatini shakllantiradi. “To‘maris” stillashtirish usulida yozilgan, ya’ni nafaqat muallif nomidan, balki uning bosh qahramonlari nomidan ham hikoya qilinadi. Shuning uchun asarning til uslubi ikki planda: 1) hikoya qiluvchi muallifning tili va 2) personajlarning tilida olib boriladi. Asarning sirini tarjimon R.Rzaevaning tushunganligi, tildan mohirona foydalanganligi tarjimaning birinchi sahifalaridan ko‘zga tashlanadi.

1. Tumarisa, wa anajan,

Sarsılasań basıń iyip.

Perzentiniń azasıman

Júrek-bawırın túr góy kúyip.

1. Tomiris! Mother’s grief

Bows a proud head down,

Strong pain in the heart,

And emptiness in the look around

Asl nusxaning tiliga, uslubiga moslik va shu bilan birga qoraqalpoq tiliga tabiiylik faqat To‘maris hikoyasida saqlanmasdan asardagi boshqa qahramonlarning ham til xususiyatlari, nutq usullari tarjimada to‘g‘ri berilgan.

R.Rzaevaning tarjimasida satrlarda semantik jihatdan ma’nolarning mosligini kuzatishimiz mumkin. Tarjimada ortiqcha yoki kam so‘z uchramaydi. Har bir so‘z, so‘z birikmalari o‘z o‘rnida qo‘llanilgan. Ularning badiiy, so‘zlash ohangi ham asl nusxadagidek. Quyidagi misolni kuzataylik:

2. Kindik qanım tamǵan dalam,

Ana jurttıń topıraǵı!

2. Thee, the Massagets’ old clan

Thee, my free steppe

That absorbed the blood

¹⁶ Есенов Ж. Поэзия жұлдызы. – Нөкис: Билим, 2003. – Б. 5.

¹⁷ Қайпбергенов Т. Қарақалпақ қызы. – Нөкис, 1971.

¹⁸ О‘sha manba.

Bir qarashda “*Ana jurttiń topıraǵı*” – “*my free steppe*”, “*Biyopalıq etsem saǵan*” – “*betray you*”, “*Kózimdi qus shoǵıǵanı*” – “*a black raven peck my eyes*” so‘zma-so‘z tarjima qilishning natijasidek ko‘rinadi. Lekin aslida unday emas. Aksincha, bu yerda tarjimonning qoraqalpoq adabiyotini, qoraqalpoq tarixiy an‘analarini chuqur anglashi, ingliz leksikasidan so‘z tanlashini shu asosda olib borishi yaqqol ko‘rinadi.

I.Yusupov tilining soddaligi, uslubining ixchamligi uning tasvirlashda qisqa, aniq, ustuvor va muhim belgilarni yorqin tasvirlaganida namoyon bo‘ladi. Qolgan tomonlari o‘quvchiga ortiqcha so‘zlarsiz ham tushunarli, yaqqol ko‘rinib turadi. Masalan,

3. Dúz kórgen dáw júrekligiń,
Tuwǵan ay qas-qabaqların,
Kiyik minez úrkekligiń,
Kiyikshe tik ayaqların,-

3. A saiga’s care, the reckless braveness,
The alert black eyes, so nice,
Slim legs and a soft quick step.

Bu tasvirni R.Rzaeva mahorat bilan tarjima qilgan – asl nusxa saqlanishi bilan birga tarjima tili badiiy tabiiydir.

Ona tilining leksik boyligidan to‘g‘ri foydalanishda Rzaevaning mahoratini ko‘rish mumkin. Tarjimada bir qancha frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda ma‘no jihatdan to‘g‘risini tanlab olinganini kuzatamiz: “*dáw júrekligiń*” - “*the reckless braveness*”, “*miyras bolıp ǵarez*” - “*valuable heritage*”, “*Kiyikshe tik ayaqların*” – “*Slim legs and a soft quick step*” va h.k.

Bundan tashqari asarda arxaizmlar kabi eskirgan so‘zlar ham uchraydi. Masalan, muallif va personajlar nutqidagi arxaizmlarning bir qanchasini ingliz tiliga tarjima qilishda, ba‘zilarini qoraqalpoq tilidagi shakllarida beradi, chunki ular tarjima qilinganda salmog‘ini, bo‘yog‘ini susaytirishi mumkin. Bunga qo‘shimcha sifatida tarjimon bunday so‘zlarning o‘quvchiga qanday ma‘noda idrok etilishi orqali o‘lchaydi: “*álimsaq*”, “*shoqmar*”, “*derbik*”, “*tunǵıyıq*”, “*doyır*”, “*turpayır*”, “*táwelle*”, “*búlik*”, “*átashtan*”, “*zeren*” va h.k.

Asarda ko‘plab uslubiy vositalardan foydalanilgan. Jumladan, qahramonning ko‘ngil kechinmalarini tasvirlash uchun o‘xshatishdan foydalanadi. Masalan:

4. Oshaq – otsız, qus – qanatsız
Ne máni bar, aytshı bunda?

4. It isn’t worth having an eagle
Without wings to fly with aim
The hearth without burning flame

deb shoir savol bilan boshlab, savol bilan yakunlaydi. Bu satrlarda shoir To‘marisning onasining hayotini tasvirlash va ko‘nglidagi kechinmalarni, muhabbatga oshno bo‘lgan ko‘nglini to‘liq ochib berish maqsadida “*oshaq*” leksemasini *oilaga*, “*qus*” leksemasini esa *odamga* ramziy jihatdan o‘xshatadi. Shu orqali oilada muhabbat, tushuncha bo‘lmasa, odamzodning ko‘nglida esa ishq bo‘lmasa qanotsiz qush bilan bir xil bo‘ladi degan ma‘noda ifodalaydi.

Qoraqalpoq tilida ba‘zi hollarda, masalan: maqol tarkibida bu birikmaning shakli butunlay o‘zgarib, ma‘nosi boshqa so‘zlar bilan berilishi ham mumkin: “*Bas jazasin moyın tartar*”, “*Kól sulıwı aq quw qus, tab Jubı menen jarasıqlı...*”, “*Uris bolsa turıs bolmas*”, “*Birew basqaǵa gór qazsa, Ózi túsip qalar bolar*” h.t.b.

Bobning “**I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishning grammatik xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi qismida qoraqalpoq xalq shoiri I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishdagi grammatik xususiyatlar o‘rganiladi.

Milliy koloritni yetkazib berishning eng asosiy va samarali (effektiv) usuli – madaniy spetsifik leksikaning qo‘llanilishidir. Milliy kolorit grammatik ma’noda (bosqichda) ko‘p hollarda aks etmaydi va koloritni ifodalashning bunday holatini yordamchi deb atashimiz mumkin.

R.K.Rzaeva¹⁹ tomonidan yozilgan “Badiiy adabiy tarjima masalalari” to‘plamini tahlil qilar ekanmiz, I.Yusupov asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishda o‘ziga xos usullarni qo‘llashga moyilligi borligini anglaymiz.

Masalan, “To‘maris” asarida “Quyash qiz!” so‘zini tarjimada tarjimon qahramonlarga xos turg‘un so‘z birikmalaridan foydalanadi:

5. *Quyash qizi* – Tumaris

5. *The Sun’s daughter Tomiris, my queen!*

Bunday kompensatsiya bizga o‘rinli bo‘lib tuyuladi, chunki asardagi (“Quyash qizi”) so‘zi yoqimli ovozga ega, botir, dovyurak, dushmanga hech qachon bosh egmagan hukmdor podsho qizi obrazini aniq tasvirlay oladi. Berilgan so‘z birikmalari yordamida xuddi shunday obraz hosil qilinadi. I.Yusupov asariga xos bo‘lgan so‘z birikmasi orqali ifodalangan kompensatsiyaning unga mos boshqa misollarida ham kuzatishimiz mumkin. Shoirning “Ana tilime” she’rini olib qaraydigan bo‘lsak, shoir “ona til”imizning qadimdan kelayotgan qadimiy til ekanligini “g‘one tamir” so‘z birikmasi orqali mohirona tasvirlab bergan:

6. *Bayterekseñ ósken gone tamirdan,*

6. You are a *perennialtree* with leaves,

Grown from the *old root* each

deb keltirilgan. Shoir bunda *Bayterek teregin* – yosh, go‘zzal, mustahkam o‘sayotgan daraxtga o‘xshatib, lekin o‘zining tarixiy ildizlarini saqlap qolgan, mustahkam tayanchga va kelajakda rivojlanishga intilishga ega mamlakat ramzi sifatida ta’riflaydi. Rzaeva ham o‘z tarjimasida Bayterekni ko‘p yillik o‘simlik sifatida tasvirlab, yana bir marta ta’kidlab o‘tgan.

7. *Írasgóyseñ* durısın aytqan *añqıldap*

Sahrayısañ qattı *dawıs shañqıldağ.*

– degan misralar orqali tasvirlasa, «Qaraqalpaqtı kóp maqtama kózimshe» she’rida:

8. Hárkimniñ bar ázzi jeri ózinshe,

Shortanımday añqıldaqlaw xalıqpan.

7. You always *tell the truth*

You *speak* with *voice*, so sound

8. Everyone has his Achilles’s heel
in one’s place

We are *as frank as a pike*.

– desa, yana bir misrasida:

9. *Mıynet dese jeñtúringen* palwanday,

Arbağa taw tiye dese tiyegen.

9. *Rolling up* their *sleeves* high

They set to work and ready to liad a
mountain.

– deb xalqimizning mehnatsevarligini “*arbağa tawdı tiyew*”, oq ko‘ngilligini “*añqıldaqlaw*”, do‘stlik uchun jonini jabborga beradigan xalq deb qoraqalpoq xalqiga xos milliy xususiyatlarni tasvirlashda muayyan so‘z birikmalari orqali ifodalaydi.

¹⁹ Рзаева Р.К. Вопросы художественного перевода (лирика каракалпакского поэта И.Юсупова). – Нукус, 2015. – 154 с.

Alliteratsiya qoraqalpoq xalq ijodida unchalik ko‘p uchramaydi, lekin u ingliz asarlariga xos²⁰.

10. *Birew joqlap jilaydi.*

10. *A man mourns a man*

Berilgan misolda alliteratsiya “*man mourns man*” so‘z birikmasidagi [m] tovushining takrorlanishi orqali tuzilgan, u asarning nutq ritmini va og‘zaki an‘anasiga xos bo‘lgan muayyan bir kuyni yuzaga keltirishga imkoniyat yaratadi.

Kompensatsiyaning boshqa bir usuli tarjimon tomonidan bir necha arxaik grammatik shakllarning qo‘llanilishi:

11. *Jaralgansań meni jaratıw ushm*

11. *Having come to this world, thee, You gave a birth to me.*

Hozirgi ingliz tilida *thee* deb berilishi qoidaga muvofiq keladi, maxsus tarzda tarjimadagi arxaiklashtirish qoraqalpoq tilidagi *jaralgansań* fe‘li orqali ona obrazining konnotativ ma‘nosini kompensatsiya qiladi.

Tarjimadagi milliy koloritni kompensatsiya qilishning yana bir qiziqarli usuli transkripsiya/transliteratsiya usuli hisoblanadi:

12. *Áynegínniń aldında dúmshege usap*

12. *Although it’s as black as a khumgan, near the hearth.*

Tarjima muallifi R.Rzaeva qoraqalpoq tilidagi «*dúmshe*» so‘zini – suv qaynatish uchun mo‘ljallangan temirdan yasalgan idishni “*khumgan*” deb transliteratsiya usulidan foydalangan holda tarjima qilgan. Mutarjimning bu birikmani asl nusxada bo‘lmasa ham kiritishi, shu orqali qandaydir ma‘noda kompensatsiya qilishi, tarjimonning shu so‘zning asl mohiyatini to‘liq anglab yetganligi hamda to‘g‘ri foydalanganligidan dalolat beradi.

Masalan, “*To‘maris*” asaridan olingan misollar asosida initsial formulalarning (tashabbuslarning) tarjimasini ko‘rib o‘taylik:

13. *Kindik qanım tamǵan dalam,*

13. *Thee, the Massagets’ old clan*

Ana jurttıń topıraǵı!

Thee, my free steppe

That absorbed the blood

“*Kindik qanım tamǵan dalam*” va “*Ana jurttıń topıraǵı*” sinonim so‘z birikmalari birinchi formulaning vazifasi milliy koloritni kengroq mazmunda ifodalashi bilan ajralib turadi, vaholanki bu ikki formula ham umumiy bir vazifani bajaradi – asarning bosh qahramonini belgilaydi.

Eksplikatsiyaning yorqin misolini shoirning “*To‘maris*” asari tarjimasida kuzatish mumkin:

14. *Jayılmasın qara shashıń,*

14. *Gather the mop of your hair,*

Bol má rdana dep turǵanday...

Spread on your shoulders, wave.

Be merciless and brave!”

Tarjimon leksik-grammatik eksplikatsiyani qo‘llaydi, chunki ingliz xalqi an‘anasiga ko‘ra *shashım jayıw* (soch yoyish) kabi hodisaning qoraqalpoq xalqi uchun “*aza tutish, motam*” belgisi ekanligini tushunmasligi mumkin. Bunday holatda “*Gather the mop of hair*” so‘z birikmasining qo‘llanilishi unchalik ma‘qul emas,

²⁰ Алимов В.В. Теория перевода. Перевод в сфере профессиональной коммуникации. – 2е изд. – М.: USSR, 2006. – С.49.

chunki u hech qanday ma'no qirrasiga ega emas. Shu o'rinda eksplikatsiyani qo'llash, bizning fikrimizcha, o'zini oqlaydi. U xorijiy kitobxonni qoraqalpoq madaniyatiga olib kiradi va shu bilan "aza tutish, motam" so'zining madaniy-spetsifik bo'yog'ini saqlab qoladi, shuningdek asarning syujetini yanada tushunarli qiladi.

15. Hár birinde *Jiyrensheniń* aqlı,

15. Each of them is as wise as *Jiyrenshe*

Tarjimon haqiqiy qoraqalpoq realiyasi hisoblangan "jiyrenshe" so'zining ma'nosini anglatadi. *Jiyrenshe* bu qoraqalpoq madaniyatida so'zga usta, aqlli, dono odam ato nisbatan ishlatiladigan so'z bo'lib, uni tarjimon ingliz tilida faqat *wiseman* deb bermasdan, *as wise as Jiyrenshe* degan so'z birikmasi orqali tarjima qilgan. Ushbu qoraqalpoq xalqining milliy koloritini tasvirlashda qo'shimcha tavsiflarni qo'shish orqali mutarjim ingliz kitobsevarlariga milliy koloritni tushunishida yordam beradi.

Takrorning misolini shoirning "Bir adamdı bir adam" she'rida uchratish mumkin:

16. Bir adamdı bir adam
Janday jaqsı kóredi.

16. A man can love a man,
Deeply by the heart, for ages.

Tuyg'ularning kuchayishini ko'rsatish uchun bunday takror asarda sakkiz marta qo'llanilgan. Mazkur vazifa tarjimada ham saqlab qolingani. Asarning asl nusxasida ish-harakatning natijasi *jaqsı kóredi, saǵmadı, joqlap jılaydı, keńes soraydı, jetip baradı, nan berer, qan berer, jan berer* hozirgi zamon fe'l shakllari orqali ifodalanadi. Tarjimada bu maqsad uchun hozirgi zamon shakli qo'llanilgan: *falls in love (sing., III), miss (pl. III), mourns (sing. III), protects (sing., III), sharing, giving* va shu kabilar.

Bobning "I.Yusupov asarlarini qoraqalpoq tilidan ingliz tiliga tarjima qilish interpretatsiyasi" deb nomlangan uchinchi qismida shoir asarlarini qoraqalpoq tilidan ingliz tiliga tarjima qilishdagi turli qarashlar o'rganiladi.

Adabiyotshunos G.Esemuratov Ibroyim Yusupov ijodini maxsus tarzda birinchilardan bo'lib o'rganib, shoir asarlarini to'liq tahlil qilgan va Ibroyim Yusupov ijodining xarakterli belgilarini qayd etadi: falsafiy fikrlashi, teran tafakkuri, psixologizmi, nozik lirikasi, xalq tilining boyligi va obrazlilik, she'r tuzilishidagi yangiligi va rang-barangligi shoirni boshqalardan ajratib turishi haqida yozgan.

Olimlar badiiy tarjimani milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalarining shakli deb ta'kidlaydi. I.Yusupovning ko'pgina she'rlari rus tiliga tarjima qilingan bo'lsa-da, ularning ba'zilarida shoirning o'ziga xos poetik so'zni tanlash iste'dodi, asl nusxaning milliy koloriti xorijlik o'quvchiga yetkazib berilishi qiyinchilik tug'diradi. Masalan, "Ayt sen *Ájiniyazdıń qosıqlarınan*":

17. Jılasın yar ıshqı bawırın tilgekler,
Eńiresin elinen ayra túskenler,
Ayt sen *Ájiniyazdıń qosıqlarınan*!

17. Sing me *Ajiniyaz* song!
Let those cry whose hearts
Were pierced by an arrow of the blow
Parting with Motherland and sorrow
Sing me *Ajinyaz* song!

E.Steniland tarjimasida:

17. Sing a song To Me, Those Songs of His, *Ajiniyaz*!
Sing songs to me, those songs of his, *Ajiniyaz*!

